



Talabalarining o'qishini xorijiy davlatlardan ko'chirish bo'yicha onlayn ariza qabul qilish muddati:

15-iyuldan
5-avgustgacha;

Hujjat qabul qilish manzili:
my.dtm.uz sayti

O'tish balalarini bilish:
info.edu.uz sayti

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

47 (16500)
2022-yil, 16-iyul
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Kelajak bunyodkorlari
3-bet

"Ucharto'p" milliy
o'yini ixtiro qilindi

Mushtariydan maktub
5-bet

Yoshlar va
narxlar

Til bilimi
7-bet

O'pka



Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA



“MAHALLABAY”

ISHLASH TIZIMI TAKOMILLASHADI

Mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash bo'yicha sho'ba mudirlari uchun respublika o'quv-seminari o'tkazilmoqda.

batafsil
2-bet

“MAHALLABAY”

ISHLASH TIZIMI TAKOMILLASHADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida Yoshlar ishlari agentligining mahallalardagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash bo'yicha hududlardagi sho'ba mudirlari uchun 5 kunlik o'quv-seminari o'tkazilmoqda. Yoshlar ishlari agentligi hamda tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan seminar "mahallabay" ishlash tizimining tub mohiyatini tushuntirishga qaratilgan.



Dilnoza KATTAXANOVA,
Yoshlar ishlari agentligi direktorining o'rinbosari:

– 6 oydan buyon mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyat olib bormoqda. Har bir tuman va shaharda, viloyatlarda mavjud sho'ba mudirlari mahalladagi yoshlar yetakchilarining faoliyatini muvofiqlashtiradi. Shuning uchun ham o'rta bo'g'in vakillarining huquqiy savodxonligini, amaliy ko'nikmalarini oshirish biz uchun muhim. Ularning Davlat boshqaruvi akademiyasi professor o'qituvchilari qo'lida o'qishi, ustozlardan eng so'nggi yangiliklar, texnologiyalar bo'yicha ilm olishi mahalladagi ishlarni yanada samarali amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Seminarning dastlabki kunida Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnoza Kattaxanova, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi prorektori Alisher Umarov, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti direktori Aktam Jalilov hamda Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i Sherzod Olimov ishtirok etib, mazkur seminar qatnashchilar uchun o'ziga xos bayram ekanligi, akademiyada o'qish mas'uliyatli bo'lish bilan birga sharaflil ham ekanligini ta'kidlashdi. Bugun bu yerda ta'lim olayotgan agentlik xodimlari ertaga rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishiga ishonch bildirildi.

Seminar qatnashchilari sho'balarga bo'linib, Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati mas'ul xodimlari, mutasaddi tashkilotlar va Davlat boshqaruvi akademiyasi professor o'qituvchilari tomonidan o'tilayotgan bir-biridan qiziqarli dars mashg'ulotlari

orqali bilim va tajribalarini oshirmoqda. "Yoshlar balansi" va "Yoshlar daf-tari" platformasining mahallalarda yuritilishi tushuntirilmoqda. Mahalla yoshlari o'rtasida besh bosqichli "5 tashabbus olimpiadasi" doirasidagi tadbir va musobaqalarni tizimli tashkil etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatilmoqda. Yoshlar yetakchilarining mahallalarda "Yoshlar dasturi"ni ishlab chiqishi va me'yoriy hujjatlar hamda nomenklaturalar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish borasida ko'rsatmalar berilmoqda.

Bundan tashqari, seminar mashg'ulotlari kun tartibidan yoshlarning g'oya va takliflarini eshitish, muhokama qilish uchun maydon yaratish, yosh iste'dodlarni kashf etish, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda mamlakatdagi yangilanishlarga faol jalb qilish masalalari ham o'rin olgan. Shuningdek, hududlardagi xodimlar o'rtasida o'zaro do'stona muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlarini olib borish bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish reja qilingan.

Mashg'ulotlarda ishtirokchilar o'z-lari uchun qiziq bo'lgan savollar bo'yicha mutasaddi tashkilot vakillari va professor ustozlarga yuzlanib, kerakli javoblarni olish imkoniyatiga ega. Quvonarlisi, ochiq muloqot erkin, samimiy ruhda olib borilib, barcha uchun foydali mashg'ulotlar o'tkazilmoqda. Bunday muloqotlarda respublikamizning barcha hududlaridan kelgan yosh davlat xizmatchilari o'zaro tajriba va fikr almashmoqda, davlat hokimiyati va boshqaruvi rivojlantirish bo'yicha takliflar ham tinglanmoqda.

E'tiborsiz, Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvda yoshlarga qarata: "Mahallada ishlamagan odamni vazir qilmayman", degan so'zlari bugun yosh davlat xizmatchilari uchun o'ziga xos motivatsiya bo'lmoqda, kuch va shijoat bermoqda. Darhaqiqat, mazkur seminar salohiyatli, rahbarlik qobiliyatiga ega yoshlar uchun o'ziga xos sotsial lift vazifasini o'taydi.

Seminar 17-iyulga qadar davom etadi.




Akmal G'AYT'OV,
Yoshlar ishlari agentligi-ning Furqat tumani bo'limi mas'ul xodimi:

– Biz seminarida boshqa hududlardan kelgan hamkasblarimiz bilan do'stona fikr almashmoqdamiz. Eri-shilgan yutuqlar sarhisob qilinmoqda. Jarayonlarda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarimiz yuzasidan xulo-sa qilib, kelgusida shu xatolarga yo'l qo'ymaslik, kam-chiliklarni bartaraf etish bo'yicha tushuntirishlar berish-moqda.

Elyor G'OIPOV,
Yoshlar ishlari agentligi-ning Uchtepa tumani bo'limi sho'ba mudiri:



– Hududimizda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 725 nafar yoshning 92 foiziga amaliy yordam berildi. Ayni paytda 3500 nafarga yaqin maktab bitiruvchilari bandligini ta'minlash asosiy masalamiz bo'lib turibdi. Ularning o'z yo'lini topishiga to'g'ri yo'naltirishimiz kerak. Oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshiradigan, ish bilan ta'minlanadigan yoki kasb-hunar o'rganadiganlarga kerakli maslahatlarni berishimiz lozim.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Foto: Ziyoda RAHIMBOYEVA

LEARN, SHARE AND INSPIRE!



Volontyorlik inson o'z istak va xohishi bilan vaqti va mehnatini maqsadli jamoat ishiga bag'ishlash, ko'p hollarda hech qanday moddiy foydasiz, ya'ni ko'ngilli ravishda beg'araz yordam berishdir. Agar insonda qimmatli ish tajribasi va kerakli ko'nikmalar shakllangan bo'lsa, ular aynan o'zlari egallagan sohalarga doir volontyorlik faoliyatida ustuvorlikka ega bo'lishadi.

Volontyorlik nafaqat ko'ngilli bo'lib ishlash, shuningdek, boshqa ko'ngillilar, eng faol va yaxshi insonlar bilan do'stlashish ham demakdir. Andijonlik Sarvinoz Odiljonova ham shunday ko'ngilli volontyorlardan. U 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan "Kelajak bunyodkori" medali sohibasi bo'ldi. Bu mukofot Sarvinoz uchun nafaqat rag'bat, balki uni kelajak rejalariga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi.

Sarvinoz ODILJONOVA,
"Kelajak bunyodkori" medali sohibasi:

– Bu medal nafaqat men, balki butun O'zbekiston volontyorlari uchun katta mukofot va rag'bat bo'ldi va ayni damda mening zimmamga ulkan mas'uliyatni ham yukladi. Ushbu mas'uliyat meni yanada shijoat bilan ishlashga, bildirilgan ishonchni oqlashga undaydi. Muhtaram Prezidentimizdan mukofotni qabul qilib olayotgan paytimda, "O'zbekiston volontyorlari guruhi yetakchisi", deya e'tirof etilganimda yelkamdakatta mas'uliyat paydo bo'ldi. Kutilmagan e'tirof ortidan mana shu tarixiy sanani men uchun eski yilning tugallanishi va ertangi kundani yangi yilning boshlanishi deb hisobladim va o'z oldimga jamoam bilan birgalikda maqsadli rejalarini qo'yib oldim. Rejalar zamirida respublikamizda volontyorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shishni, xalqaro maydonda volontyorlik bo'yicha ko'plab davlat grantlariga ega bo'lishni, shaxsiy rivojlanishni o'ylayapman.

Men doim "Learn, share and inspire", ya'ni o'rgan, o'rgat va ilhomlan shiori bilan qadam tashlayman. O'rganish orqali insonlarga o'rgatish va bundan ilhomlanish, ruhan qoniqish hissi insonni doim olg'a qadam tashlashga undaydi.

Faoliyatimda ko'plab yutuqlar, do'stlarim, ustozlarimning tanqidlari va miskin insonlarning mehri qalblari ortidan o'zimga katta motivatsiya olaman, yanada oldinga intilishga harakat qilaman. Holatlar ortidan g'oyalay paydo bo'ladi, ularni amalga oshirishga jamoa bilan birgalikda harakat qilamiz, uddalagach ustozlarimizning mamnunligi, ishonchi bundan-da katta loyihalarga kuch va istakni paydo qiladi.

O'zimni komil inson sifatida shakllantirib borish uchun doim izlanishdaman. Chet tillarini o'rganishga mahkam bel bog'laganman. Hozir ingliz tili bilan birga fransuz tilini ham o'rganishni boshlaganman. Sport bilan ham shug'ullanib turaman. Ijtimoiy loyihalarda doim faol bo'lishga harakat qilaman. Yaqin kelajakda o'z yo'nalishim bo'yicha boshlagan ilmiy faoliyatimni davom ettirib, olimo darajasigacha yetishni, ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogiron yoshlar bilan ishlashni, Andijonda eng katta inkluziv ta'lim va kasbga yo'naltirilgan markazni ochib, faoliyatimni shu yo'nalishda davom ettirishni maqsad qilganman.

Nazira UBAYDULLAYEVA tayyorladi.

"UCHARTO'P"

MILLIY O'YINI IXTIRO QILINDI

Andijonlik bir guruh yoshlar milliylikni aks ettiruvchi, mentalitetimizga xos va mos bo'lgan yangi o'yinni mahalliy aholi e'tiboriga taqdim etdi. "Ucharto'p" deb nomlanadigan o'yinning dastlabki natijalari ham yomon emas. Sinov tariqasida aholi o'rtasida bir necha oy davomida o'tkazilgan o'yin barchada katta qiziqish uyg'otdi.

Quvonarlisi, "Ucharto'p" o'yini O'zbekiston sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan ham o'rganib chiqilib, sinov tariqasida amaliyotga ruxsat berildi. Hozirgi kunda Marhamat tumanida "Ucharto'p" federatsiyasi tashkil etish yo'lida amaliy ishlar olib borilmoqda.

"Ucharto'p" – 7 o'yinchidan tash-

kil topgan jamoaviy, to'p havodan tushirmay o'ynaladigan o'yin bo'lib, tashqi diametri 40 santimetr, og'irligi 600 gramm bo'lgan ballon shaklidagi to'p bilan o'ynaladi. O'yin 10 daqiqadan 4 bo'lim davom etadi. O'yinchi to'pni yerdan 40 santimetr balandlikda joylashgan ichki diametri 2 metr bo'lgan aylana shakldagi halqaga joylasa, "halol" deb topiladi va qaysi raqam hududidan tushirilsa, jamoaga shuncha ochko yoziladi. To'p bilan harakatlanish uchun 7 qadamgacha ruxsat beriladi. "Ucharto'p"ning maxsus kiyimi "Hafton" deb ataladi.

"Ucharto'p"ning ixtirochisi Jamoliddin Bo'taqulovning aytishicha, bu ixtiro mualliflik huquqi intellektual mulk agentligi tomonidan patentlangan.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"QALQON" JINOYATGA CHEK QO'YDI

"Yo'ldoshobod" mahallasi yoshlar yetakchisi Elmurodjon Abduhamidov mahalladagi profilaktika inspektori bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yib, hududda jinoyatchilikning oldini olishga alohida ahamiyat bermoqda. Yoshlar yetakchisi mahalladagi ko'ngilli yoshlardan "Qalqon" guruhini tashkil etib, har kuni kechki vaqtlarda tungi reydtadbirlarini o'tkazib, mahalla osoyishtaligiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Jumladan, joriy yilning 7-iyul sanasida "Qalqon" guruhining navbatdagi tungi reydtadbirini o'tkazish jarayonida Qo'shtepa tumanidagi "Yo'ldoshobod" mahalla fuqarolar yig'ini Toshbuloq ko'chasida tungi soat 01:15 oralig'ida oq rangli "Cobalt" rusumli davlat raqami berkitilgan avtomashinada ikki noma'lum shaxs 32-uyning oldida turgan avtomobil ehtiyot qismlarini o'g'irlab ketmoqchi bo'lgan vaqtda ushlendi. Uy egasi xonadonidan chaqirilib, o'g'irlik bo'lishi mumkin-

ligi va o'ziga tegishli bo'lgan moddiy boyliklarini asrab-avaylashi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi.

Hozirgi kunda "Qalqon" guruhi a'zolari, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektori har kuni tungi reydtadbirlarini o'tkazib kelmoqda. "Yo'ldoshobod" mahallasi yoshlar yetakchisining tashabbusi bilan "Qalqon" guruhining har bir a'zosi uchun maxsus xizmat kiyimlari tayyorlanib, yoshlarga berilgan. Kelgusida "Qalqon" guruhi a'zolari uchun tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan maxsus guvohnomalar berish taklifi berilgan.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



O'ZBEKISTON TASHABBUSLARINING XALQARO E'TIROFI

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining qator sessiyalarida so'zlagan nutqlarida bir qator tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Mazkur tashabbuslarning bir ovozdan qabul qilinayotgani esa Prezidentimizning nafaqat mamlakatimiz yoki Markaziy Osiyo, balki butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni ilgari surayotganidan dalolat beradi.



Mahmud BOLIABOYEV, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori

Joriy yil 11-iyul kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash bo'yicha maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan ma'qulladi. Mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbusning amaliy natijasi bo'ldi.

Eng muhimi, mazkur Rezolyutsiya milliy, xorijiy va xalqaro ekspertlar tomonidan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangicha tashqi siyosatning yutug'i va mantiqiy davomi sifatida e'tirof etilmoqda.

2021-yil 21-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida BMT Bosh assambleyasining 76-sessiyasida Prezidentimiz Toshkent shahrida 2021-yil iyul oyida bo'lib o'tgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi BMT Bosh assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surgani haqida ma'lum qilgan edi.

Ta'kidlash joizki, bu BMT tomonidan qabul qilingan Prezidentimizning birinchi tashabbusi emas. Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan BMT Bosh assambleyasining 5 ta rezolyutsiyasi qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston yetakchisi 2017-yil 19-sentabrda Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan "Ma'rifat va diniy bog'rikenglik" maxsus rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilingan edi.

O'zbekiston taklif etgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi – barcha uchun ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdan iborat. Hujjatda "bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik"ka ham chaqirilgan.

Yana bir muhim jihat: BMT Bosh assambleyasining O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan rezolyutsiyalaridan to'rttasi Markaziy Osiyo mintaqasiga bevosita taalluqli bo'lsa, bittasi Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi asosida qabul qilingan ushbu yangi rezolyutsiya nafaqat Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari, balki butun Yevrosiyo makonida doimiy va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu hujjat ikki mintaqada o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida yangi davrni boshlab berishi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda qayd etish joizki, mazkur hujjat ke-lajakda Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan ta'lim, fan, sport yo'nalishidagi aloqalarni yanada kengroq rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda, albatta, yurtimiz oliy ta'lim

muassasalari hamda Janubiy Osiyo mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligida, ayniqsa, sportni rivojlantirishda katta ijroiy hissa qo'shadi.

E'tiborlisi, rezolyutsiya nafaqat BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi, balki dunyoning turli qit'alarida joylashgan 40 ga yaqin mamlakat hammuallifligida qabul qilindi. Bu davlatimiz rahbari tashabbusining dolzarbligi va o'z vaqtida ilgari surilgan xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilganining ifodasi bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh maslahat organi tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyada ushbu oliy darajadagi konferensiya o'tkazilishi va uning yakunida ikki mintaqada tashqi ishlar vazirlari tomonidan ma'qullangan qo'shma bayonot yuksak baholangan.

Bundan tashqari, qarorda mintaqaviy aloqalarni mustahkamlashda hududiy tashkilotlarning muhim o'ri e'tirof etilgan. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Prezidentining 2022-yilni iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida "O'zaro bog'liqlikni mustahkamlash yili", deb e'lon qilish bo'yicha tashabbusiga yuqori baho berilgan.

Rezolyutsiyada Afg'onistonning Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishdagi roli, shuningdek, mustahkam tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va mintaqalararo iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvining muhimligi ham urg'ulangan.

Hujjatda Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasida qashshoqlikni kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish, transport infratuzilmasini kengaytirish, dengiz portlariga qulay, barqaror va xavfsiz yo'nalishlarni ochadigan yangi xalqaro transport yo'laklarini shakllantirish borasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha asosiy qoidalarni o'z ifodasini topganini alohida ta'kidlash lozim.

Rezolyutsiya, shuningdek, BMTga a'zo barcha davlatlarni Markaziy va Janubiy Osiyoda barqarorlik hamda xavfsizlikka umumiy tahdidlar va xavf-xatarlarga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirishga chaqiradi.

Mazkur rezolyutsiyaning BMT Bosh assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilingani O'zbekiston rahbariyatining ikki mintaqada o'rtasida tinchlik va do'stlik, ishonch va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va o'zaro investitsiyalar hajmini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlat siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanayotganining yaqqol ifodasi bo'ldi.

177 IMKONIYAT



TADBIRKORLAR UCHUN IMTIYOZLI IJARA

Prezidentimizning 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandlegiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozlar nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, "Yoshlar daftari"ga kirgan 5 nafardan ortiq ishsizlar bandlegini ta'minlagan tadbirkorlar uchun davlat mulki ijarasi uchun 50 foizgacha imtiyoz berish nazarda tutilgan.



Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Mazkur imtiyozdan foydalanish istagida bo'lgan yosh tadbirkorlar davlat mulkini ijara berish markazlariga davlat mulki ijarasi uchun 50 foizgacha imtiyoz berish yuzasidan Yoshlar ishlari agentligining tuzasi bilan shahar bo'limiga murojaat qiladi.

Yosh tadbirkor, shuningdek, o'z murojaatiga "Yoshlar daftari"ga kirgan 5 nafardan ortiq ishsizlar bandlegini ta'minlaganligining tasdig'ini ilova qilishi lozim.

Imtiyozlar koeffitsiyenti Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyat markazlari hamda boshqa hududlar bo'yicha tegishli hududiy zona koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan obyektlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi oqibatida me'yori buzilsa, keyingi oydan boshlab belgilangan me'yorga muvofiq imtiyoz qo'llaniladi yoki bekor qilinadi.

Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizi "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar bo'lgan bir nechta yosh tadbirkorlik subyektlari bitta davlat mulkini ijaraga olish istagini bildirgan taqdirda imtiyoz xodimlar umumiy soni tarkibida "Yoshlar daftari"ga kirgan yoshlar soni ko'p bo'lgan tadbirkorlik subyektiga beriladi.

Mazkur imtiyozlar qonunga muvofiq, ijara to'lovidan imtiyozga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga tatbiq qilinmaydi. Tadbirkorlik subyektlari ushbu ro'yxatda keltirilgan imtiyozlarning bittasidan foydalanishi mumkin. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi.

JAHON CHEMPIONI

BO'LISHINI KUTYAPMIZ

Mashhura NASRIDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Jamiyatda imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, yutuqlarga erishayotgan yoshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Imkoniyatim cheklangan, deb chetda turib qolish zamonadan orqada qolish bilan tengdir. Dunyoda ko'plab buyuklar ichida ham jismoniy imkoniyati cheklanganlari bor.

Misol uchun dunyoning mashhur bastakori Betxoven tug'ma o'jiz bo'lgan, AQShning to'rt marta Prezidenti etib saylangan Franklin Ruzvelt esa bolalar falajli kasalligini boshidan o'tkazgan. Mashhur ingliz yozuvchisi Jon Milton 43 yoshida ko'zleri ko'r bo'lib qolgan va shunga qaramay, o'zining shoh asari – "Yo'qolgan jannat" ni yaratgan. Bu kabi misollarni sanasak adog'i yo'q.

Iste'dodsiz inson yo'q, faqat buni sezmaydiganlar bor, degan ekan donolardan biri. **Shunday iste'dodlardan biri Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida tug'ilgan 19 yoshli Ahadxon Kim-sanboyevdir.** U Marg'ilon shahridagi "Turon" mahallasida istiqomat qiladi. Ahadxon shaxmat bo'yicha Osiyo chempioni. "Shaxmat o'ynash uchun insonda ishtiyoq bo'lishi kifoya", degan so'zlarni amalda isbotlagan qahramonimiz bilan bog'lanmoqchi bo'lganimizda ayni kunda Fransiyada ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi yoshlar o'rtasida II-jahon chempionatida ishtirok etayotganidan xabar topdik.

Suhbatimizni esa Ahadxonning onasi Qanoatxon Fayzullayeva bilan davom ettirdik. Qanoatxon opaning aytishicha, yosh chempionimiz dastlab shaxmatni Karimbek bobosidan o'rgangan. O'shanda u 7 yoshda edi. Bobosi ham professional shaxmat ustasi emas, oddiy matematika o'qituvchisi bo'lgan, ammo nabirasining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun birgalikda shaxmat o'ynardi.

– O'g'lim 7-sinf gacha hamma qatori oddiy maktabda tahsil oldi, – deydi Qanoatxon Fayzullayeva. – Keyinchalik esa o'qishni Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi ko'zi o'jiz va kar o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan maktabda, 2017-yil oktabrdan Farg'ona viloyati Ko'zi o'jiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatda davom ettirdi. Maxsus maktabda o'qishni boshlagach paralizmiya musobaqalarida qatnasha boshladi va ko'plab yutuqlarga erishdi.

Farzandi maqsadlari yo'lida qandaydir yutuqqa erisha, albatta, uning ortida ota-onasi yoki ustozlari turadi. Ahadxonning onasi ham suhbatimiz



davomida "Ba'zan yoshim katta bo'lib o'g'limni musobaqalarga yetaklab qiyaliganimda ham farzandimning qiyinchilikka chidamliligi, irodasi va qat'iyatini ko'rib o'zimga sabr tilaganman", kabi fikrlarni aytib o'tdi.

Shaxmatchimizning ingliz tilini bilishi ham uning ko'plab yutuqlariga sabab bo'ldi. Maqsadi yo'lida harakat qilayotgan Ahadxon shaxmat o'ynab mashq qilish uchun kompyuter orqali chet davlatdagi tengdoshlari bilan ham onlayn tarzda shug'ullanadi. Bu ham aslida tajriba almashishning bir usuli hisoblanadi. Bunday ishtiyoq, albatta, qo'llab-quvvatlanadi. Yaqinda Ahadxonga Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev tomonidan online shug'ullanishni davom ettirish uchun zamonaviy noutbuk sovg'a qilindi.

Ahadxon jamiyatdagi imkoniyati cheklangan yoshlar qatori sog'lom yoshlarga ham o'rnatilgan bo'la oladi. U oliy ta'lim muassasalari uchun grant ajratiladigan yoshlar qatorida ham bor. Xatolari ustida ishlaydigan, kamchiliklarini joyida bartaraf etadigan qahramonimiz hamma uxlayotgan kechasi soat 3 da ham shaxmat o'ynayotgan bo'ladi. Shuncha harakat va mehnat Fransiyada bo'lib o'tayotgan jahon chempionatida ham o'z natijasini beradi, degan umiddamiz.

Mushtariydan maktub

YOSHLAR VA NARXLAR

O'tgan bir necha oy ichida oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin ko'tarilishi har-xil shov-shuv, noroziliklarga sabab bo'ldi. Bu holga sabab aslida nima ekanligiga hech kim tushunmadi. Men shu masala yuzasidan o'z fikrlarimni bildirmoqchiman.

Bozorga yo'l oldim, haqiqatan ham narxlar baland edi. Dastlabki kunlari kartoshka 9000 so'mgacha, yog' 27 000 so'm, shakar 27 000 so'm, non 2800 so'mga chiqdi. Biroz vaqtdan so'ng Chirchiq shahridagi dehqon bozorida "Dehqon yarmarkasi" tashkil etildi. Yarmarkada narxlar biroz arzonroq edi. Kartoshka – 5000

so'm. O'simlik yog'i – 19 000–22 000 so'm, shakar – 17 000 so'm. Bozordagi go'sht narxi 75 000–80 000 so'mdan, "Dehqon yarmarkasi"da esa 60 000 so'mdan sotildi.

Men sotuvchilardan narx-navo nima sababdan bunchalar qimmatligini so'rasam, Rossiya va Ukraina o'rtasida ketayotgan urushni vaj qilib ko'rsatishdi. Biroq men urush va mamlakatimizdagi narxlarning ko'tarilishi o'rtasida bog'liq biror nima topa olmadim, to'g'risi.

Bir necha kundan so'ng "1000" ishonch raqamiga murojaat bilan chiqib, ikki masalani ilgari surdim. **Birinchi masala:** kam ta'minlangan

oilalarga yordam puli yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish. **Ikkinchi masala:** narxlarni tushirish bo'ldi.

Ikkinchi murojaatimga Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasingiz Toshkent viloyati hududiy boshqarmasidan javob keldi. Qo'mita bozordagi narxlarni hech qaysi tashkilot nazorat qila olmaganligi sabab narxlar keskin ko'tarilganini tan oldi. Ayrim noisof tadbirkorlar bu fursatdan foydalanib, davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar qadriga yetmasdan temirni qizig'ida bosib qoldi.

Javob xatda O'zbekiston Respublikasining "Birjalari va birja faoliyati to'g'risida"gi qonunga asoslangan jumlamani o'qib, menda bir taklif paydo bo'ldi. Ichki iqtisodiy munosabatlarda birja nima uchun kerak? Birjadan ko'ra davlat asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxini belgilasa, savdo rastalari barcha mahallalarda tashkil etilsa, balki shunday muammolar tug'ilgan bo'lar edi. Agar davlat, ichki savdo munosabatlarda birja o'rniga o'z fermer va dehqonlaridan mahsulot sotib olib,

narxlarni o'zi belgilab, xaridorlarga yetkazib beradigan bo'lsa, nur ustiga nur bo'lar edi, menimcha.

Ha aytgancha, yana bir masala ham bor. Ko'pchilik yoshlarimiz turli sabablarga ko'ra tekstil, zavodlarda ishlashga majbur. Bunday korxonalarda oylik maosh o'rtacha 1000000 – 1500000 so'm. Oylikning ahvoli bu bo'lib, narx-navoning oyog'i yerdan uzilgan bo'lsa, yoshlar qanday qilib ro'zgorini butlasin? Kiyim oladimi, ovqat oladimi...

Yaqinda tekstilda ishlaydigan bir qiz bilan gaplashib qoldim. "Bizda ish kuni haftada 6 kun, soat 8:00 dan 18:00 gacha. Oyligim yetmayapti. Bozorga bir marta borib kelsam bo'ldi. Qo'lmda bir oy uchun qoladigan pul 400 000 so'm..." – dedi u.

Barcha ijtimoiy soha, jumladan, tibbiyot, ta'lim, savdo-sotiq barchasini davlatning o'zi nazorat qilsin, shunda bunday vaziyat bo'lmaydi. Taklif kiritdim. Umid qilamanki, u inobatga olinadi.

Maksim GYULAHMEDOV.
Chirchiq shahri



QO'SHIMCHA GRANT, ONLAYN QABUL VA "CALL-CENTER" LAR MASHMASHASI

ABITURIYENTLARGA KIM YORDAM BERA OLADI?

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi

Abituriyentlarning 20-iyundan oliy ta'lim muassasalariga boshlangan hujjat topshirish jarayonlari qizg'in davom etmoqda. Qariyb bir oylik bu davr bo'lajak talabalar va ularning ota-onalaridan diqqat-e'tibori, mas'uliyatli bo'lishni talab etadi. Kimdir o'zi maqsad qilgan oliy ta'lim muassasasiga hujjatlarini topshirib, test sinovlari boshlanish sanasini intizorlik bilan kutayotgan bo'lsa, yana kimdir tanlov qilishga shoshilmayotgani ham ayni haqiqat.

Biz esa abituriyentlar orasida kichik so'rovnoma o'tkazdik. Ularning aksariyati bugungi jarayonda ko'zga tashlanayotgan ayrim kamchiliklarning hanuz bartaraf etilmaganidan norozi! Yaxshisi, bu haqida ularning o'zidan eshitganingiz ma'qul.



ONLAYN HUJJAT TOPSHIRISH MASHMASHASI

2020-yili boshlangan pandemiya ko'pchilik uchun og'ir o'tdi, hatto bugun ham uning asoratlari kuzatilmog'unda. Biroq shunga qaramay, sharoitga moslashish natijasi o'laroq, axborot texnologiyalarining eng qulay ko'rinishlaridan bema'lol foydalana olish darajasiga yetdik. Jumladan, OTMlarga hujjat topshirishning ham onlayn platformasi yaratilib, abituriyentlar vaqti, mablag'ini tejab, ortiqcha ovoragar-chiliksiz, uydan chiqmagan holda o'zlari istagan ta'lim muassasasiga hujjat topshirishi mumkin bo'ldi. Agar qandaydir tushunmovchiliklar yuzaga kelsa, o'quv yurtlarining call-centerlariga qo'ng'iroq qilish mumkin.

Afsuski, ayrim abituriyentlar yo'llagan murojaatlarda bulaning hammasi ham risoladagidek ishlaymayotgani ta'kidlanmoqda. Joriy yilda maktablarni tamomlagan "yangi" abituriyentlar bitirgan ta'lim muassasasi yili va manzili belgilashda muammolarda duch kelayotgani ham ko'p "e'tirof" etilmoqda.

OTMga birinchi marta hujjat topshirishim emas, menga imtihonga kirishdan ham ko'proq onlayn hujjat topshirish qo'rqinchilroq tuyuladi, - deydi sirdaryolik abituriyent Davron Yo'ldoshev. - Birinchidan, bizning qishloq sharoitida internet sifati juda yomon. Avvallari o'vora bo'lib, poytaxtga borishimga to'g'ri kelgan bo'lsa ham, ishim bir kunda bitar edi, hozir esa hamma kerakli hujjatlarini yig'ib bo'lgan taqdirda ham nimaadir kamchilik chiqadi: sayt qotib ishlaydi yoki qaysidir jarayonda xato qilib qo'ygan bo'laman. Shu bois butun O'zbekiston hududida sifatlil, tezkor internet xizmati yo'lga qo'yilgach onlayn hujjat topshirish jarayonlarini boshlash kerak.

Call-centerlarning hammasi ham talab darajasida ish olib bormayot-

ganini bilish uchun qabul jarayonlari haqidagi qo'shimcha savollarga javob olmay qiyalayotgan abituriyentning ahvolini tasavvur qilishning o'zi yetarli nazarimizda.

- O'zim tanlagan 5 ta oliy ta'lim muassasasidan shu kungacha ikkitasi bilan bog'lana oldim, qolganlari esa daim band yoki shunchaki raqam ishlamayotgan bo'ladi. - deydi samarqandlik abituriyent Nagima Ibragimova. - Birgina savol uchun shuncha masofani bosib o'ta olmaymiz, ammo kerakli javobni ololmasligimiz oqibatida ko'pgina tushunmovchiliklar kelib chiqayotgani ham kishini o'yantirib qo'yadi.

Bu kabi shikoyat ruhidagi noroziliklar juda ko'p. To'g'ri, ish bor joyda kamchilik ham bo'lishi tabiiy, biroq bu kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, kimningdir kelajagiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Abituriyentlar uchun maxsus bot ishga tushirildi.

Mazkur @eduuzuniversalbotdan quyidagi eng muhim ma'lumotlarni oson topishingiz mumkin.

BAKALAVR:

- fanlar majmuasi - 2022;
- qabul kvotalari - 2022 (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy);
- o'tish ballari - 2021 (hududlar, yo'nalishlar kesimida).

MAGISTRATURA:

- fanlar majmuasi - 2022;
- qabul kvotalari - 2022;
- o'tish ballari - 2021 (OTM kesimida).

Shuningdek:

- xorijiy hamda nodavlat OTMdan o'qishni ko'chirish bo'yicha 2022-yil uchun o'tish ballari;
- professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar haqida ma'lumot, ularga 2022/2023-o'quv yilida o'qishga qabul qilish bo'yicha qabul kvotalari va fanlar majmuasini bilishingiz mumkin.

@eduuzuniversalbot biz samagan yana ko'plab qulayliklarga ega.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi yig'ilishida konstitutsiyaviy qonun loyihasining umumxalq muhokamasi muddatini

1

AVGUSTGACHA
UZAYTIRISH

to'g'risida qaror qabul
qilindi.

FIDOYI YOSHLAR YETAKCHISI ANIQLANDI



"Fidoiy yoshlar yetakchisi"
ko'rik-tanlovining Farg'ona
viloyati bosqichi bo'lib o'tdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi, Yoshlar ishlar agentligi va bir nechta tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan tanlov yoshlarga oid davlat siyosatini samarali tashkil etish, yoshlar yetakchilarining ma'naviy saviyasi va bilimni oshirish orqali mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit rivojiga hissa qo'shish, bu boradagi yetakchilar ish tajribasini ommalashtirish va ularning mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida o'tkazilmoqda.

Tanlovda Farg'ona shahridagi "Gulzor" mahallasi yoshlar yetakchisi Jahongir Isroilov birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu vayda tumaniidagi "Yangiqadam" mahallasi yoshlar yetakchisi Bunyodjon Otaqulov ikkinchi, Qo'qon shahridagi "Istiqlol" mahallasi yoshlar yetakchisi Ibrodixon Qayumova uchinchi o'rinni egalladi.

Zarnigor UBAYDULLAYEVA,

Yoshlar ishlar agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati mutaxassisi

O'G'IL BOLALAR UCHUN HAM IMTIYOZLAR KERAK!

- Menimcha, O'zbekistondagi barcha yoshlarning eng katta maqsadlaridan biri oliy ta'lim olish, - deydi Toshkent viloyatlik abituriyent Nurullo Nazarov. - Ko'pchilik tengdoshlarim maktab davridanoq qo'shimcha darslarga borib, tayyorgarlik ko'rishni boshlagan. Lekin sinfimizda ilmga chanoq, talaba bo'lishni niyat qilgan, biroq oilaviy sharoiti yaxshi bo'lmagan o'quvchilar ko'p. Shunday oilalarda yashovchi xotin-qizlarga ko'plab grantlar ajratilayotgani, yaqinda ham yana 2000 ta grant qo'shilganidan xabardorman. Albatta, bu yaxshi, ammo shunday paytlarda o'g'il bolalarga ham qo'shimcha imtiyoz va grantlar ajratilisa yaxshi bo'lardi.

Yana bir abituriyentimiz OTMga hech qanday imtiyozlarsiz - o'z bilimi bilan "kirish" tarafdori, biroq...

NEGA FAQAT BITTA YO'NALISH?

- O'rta ta'limni tugatganimdan so'ng talaba bo'lish maqsadimga yana-da yaqinlashdim, kelajagimni jumalistika sohasi bilan bog'lashni niyat qilgandim, - deydi buxorolik abituriyent Sevinch Ulug'boyeva. - Ammo boshqa yo'nalishga hujjat topshirayotgan abituriyent tengdoshlarimga qarab, ular kabi beshtagacha yo'nalish tanlay olmayotganimdan xafa bo'lyapman. Bu soha yo'nalishida ijodiy imtihonlar o'tkazilayotgani sabab bunday imkoniyatdan foydalana olmas ekanmiz. Har narsaning iloji bo'lganidek, bu ammo ham o'z yechimini topishiga umid qilib qolaman.

O'PKA



Abduvohid HAYIT

Yaqinda "Devonu lug'otit-turk" dan bir she'rni atoqli olim Solih Mutallibov tabdili bilan sahifamda e'lon qilgan edim. Izohlarda tabdilga nisbatan bildirilgan fikrlar ushbu maqolaning yozilishiga turk bo'ldi. Chunki muayyan so'zning ming yil oldingi ma'no tovlanishlari bizgacha to'liq yetib kelmagan yoki o'zgaragan bo'lishi mumkin. Shu bois ko'hna bitiklar tabdill etiladi. Mana o'sha she'r:

*Öpkäm kälüb og'radim,
Arslanlaju kökrädim,
Alplar bashin tog'radim
Emdi mäni kim tutar.*

Solih Mutallibov tabdili: "Achohig'im kelib (dushmanga qarshi) xezlandim, arslon kabi bo'kirdim, alplarning boshlarini kesdim, (qani) endi meni kim tuta oladi?"

Birinchi misradagi "o'pkam kelib" iborasi bugungi o'quvchini chalg'itadi, chunki hozirgi o'zbek tilida "o'pkam kelib" deyilmaydi, ammo bizga tanish "o'pkam to'lib" iborasi "xo'rligim kelib" ma'nosiga ega bo'lib, bu esa she'rdagi ruhiyat, ma'noga ziddir. Hozir "o'pka qildi", "o'pkaladi" deganda "gina qildi, xafa bo'ldi, arazladi" ma'nolari tushuniladi. "O'pkam to'lib yig'ladim", deysh mumkin, ammo "o'pkam to'lib dushmanga tashlandim" deb bo'lmaydi.

Koshg'ariy bobomiz "Devonu lug'otit-turk" da "öpkä" so'ziga ikkita izoh keltiradi: birinchisi: "öpkä - o'pka, oq jigär"; ikkinchisi: "öpkä - g'azab; deysh shunday aytilishiga sabab g'azabning o'pkada paydo bo'lishidir. Bu so'zning shu ma'noda qo'llanishi so'zning paydo bo'lish o'rniga ko'ra kelib chiqqandir. Chunonchi, yomg'irni "osmon" deyilgani kabi" (DLT. I tom. T.:1960. 148-bet). Demak, "öpkä" ning ikkinchi ma'nosi o'tmishda "g'azab" bo'lgan ekan.

"Öpkä" so'zi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham ko'p uchraydi va u barcha o'rinlarda: "g'azab, qahr, darg'azablik, zulm, adovat" kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

Shu o'rinda qiziq bir holat - insonning turli his-tuyg'ulari, emotsiyalarini yurak, jigar, o'pka kabi ichki a'zolari bilan bog'lab ifodalash holati turkiy tillarda nisbatan ko'proq uchraydi. Aytaylik, yurak (qalb, ko'ngil, dil) - ishq, mehr, muhabbat, nafrat kabi tuyg'ularga, jigar - qarindoshlik, o'pka - g'azab, zulm, gina, xafa bo'lish, arazlash kabi hislarga aloqador a'zo deb qaraladi. Bosh-

NEGA "O'PKANGNI BOS", "O'PKA-GINA" DEYMIZ? O'PKANING ASL LUG'AVIY MA'NOSI NIMA?



“

INSONNING TURLI HIS-TUYG'ULARI, EMOTSIYALARINI YURAK, JIGAR, O'PKA KABI ICHKI A'ZOLARI BILAN BOG'LAB IFODALASH HOLATI TURKIY TILLARDA NISBATAN KO'PROQ UCHRAYDI.

qacharoq aytganda, ishq - yurakda tug'iladi, g'azab - o'pkada. Qo'rqmaslik, shijoat yurak bilan bog'liq bo'lsa, darg'azablik, adovat o'pkaga tegishli. Xo'sh, nima sababdan bunday nisbatlar paydo bo'lgan?

Shu o'rinda "o'pka" so'zining kelib chiqishiga e'tibor qaratsak, qadimgi turkiyda "ichga tortmoq" ma'nosidagi "öp-" o'zagi mavjud bo'lgan (bu haqda qarang: "Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov", I tom. 540-bet). Nafas olganda havo ham ichga tortiladi, shu bois nafas olish organi nomi bo'lmish "o'pka" ham mazkur "öp-" o'zagiga ot yasovchi "-ka" qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasalgan. Bizningcha, "o'pqa" so'zi ham "öp-" o'zagidan, shuningdek, "Devonu lug'otit-turk" da ikki o'rinda "öpdü" fe'li keltiriladi, birinchisi: "öpdü - o'pdi"; ikkinchisi: "öpdü - ichdi", deb izohlangan (DLT. I. 176-bet). Bizningcha, bu ikkala "öpdü" fe'li ham "ichga tortmoq" ma'nosidagi mazkur "öp-" o'zagiga borib taqaladi. "O'pmaq"

so'zi hozir ham tilimizda faol, "ichmoq" ma'nosidagi "öpdü" fe'lini esa "ho'plamoq" ("o'plamoq") shaklida qo'llaymiz. Inson g'azablanganda ham nafas ichga tortiladi, shu bois ajdodlarimiz g'azab, qahr, adovat kabi tuyg'ular o'pkada tug'iladi, deb o'ylaganlar. Hozir ham "o'pka" ning bu qadimiy ma'nosi "o'pkangni bos" (ya'ni, "g'azabingni bos") iborasida saqlanib qolgan.

Hozir "o'pka" deganda ginakuduratni tushunamiz, "o'pkalamoq" esa - "o'pka-gina qilmoq, xafa bo'lmoq, arazlamoq" kabi ma'nolarni bildiradi, ammo Koshg'ariy bobomiz "Devonu lug'otit-turk" da unga boshqacha izoh beradi: "öpkälädi - o'pkasiga urdi" (DLT. I.308-bet), demak, kimningdir o'pkasiga urishga nisbatan o'tmishda "o'pkalamoq" so'zi ishlatilgan. Hozirgi tilimizdagi "o'pkalamoq" ma'nosida esa "Devon" da boshqa so'z keltiriladi: "öpkilädi - o'pkaladi, xafalandi, arazladi" (DLT. I.308-bet). Bizningcha, bu fe'l ham "ichga tortmoq" ma'nosidagi "öp-" o'zagidan, ammo aynan "g'azab" ma'nosidagi "öpkä" ga bog'liq bo'lmisligi

mumkin. Alqissa, o'tmishda "öpkä" so'zi orqali ifodalangan qahr, g'azab, achchiqlanish tuyg'ulari kuchli, keskin hissiyotlardir, "öpkilädi" fe'li bilan bog'liq "o'pka-gina qilmoq", "o'pkachi", "xafa bo'lmoq", "arazlamoq", "o'pkasiz bo'lmoq" kabi iboralar esa nisbatan kuchsiz ruhiy holatni ifodalaydi. Keling, so'zimiz so'nggida yana bir bor yuqorida "Devon" dan keltirilgan she'r va tabdili o'qib ko'raylik ("G'azab" arabcha so'z, shu bois Solih Mutallibov, bizningcha, tabdilda "öpkäm kälüb" so'zlarini sof o'zbekcha: "achchig'im kelib" shaklida o'g'irgan):

*Öpkäm kälüb og'radim,
Arslanlaju kökrädim,
Alplar bashin tog'radim
Emdi mäni kim tutar.*

"Achchig'im kelib (dushmanga qarshi) xezlandim, arslon kabi bo'kirdim, alplarning boshlarini kesdim, (qani) endi meni kim tuta oladi?"

“SARMISH”

Navoiy kon-metallurgiya kompani jamg'armasi Uchquduq hududiy boshqarmasiga qarashli "Sarmish" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 700 nafardan ziyod o'g'il-qiz maroqli hordiq chiqarmoqda.


Zamonaviy qulayliklarga ega oromgohda har bir bola o'z iqtidorini namoyon etishi, sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Mavsum davomida oromgohda biser, yumshoq o'yinchoqlar tikish, haykaltaroshlik, rassomchilik va applikasiya to'garaklari ishlab turibdi.



O'za Fotomuxolm
Siroj ASLONOV

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Yurtimizdagi yosh ijodkorlar va ularning asarlarini mamlakatimizga tanitish, yoshlarning tasviriy va amaliy san'atga, san'atning boshqa sohalariga qiziqishini oshirish maqsadida yo'lga qo'yilgan loyihamizning navbatdagi sonini e'tiboringizga havola etamiz.




“Bizning yosh ijodkorlar” loyihasinging galdagi qahramoni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti haykaltaroshlik ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi **Tohirjon Ahmedov**.

Tohirjon yosh bo'lishiga qaramay, o'zi yaratgan haykallari bilan san'at ixlosmandlari e'tiboriga tushib ulgurgan. Yosh haykaltaroshimiz shu kungacha bir necha marotaba ijodiy ko'rgazmalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarga ega bo'ldi. 2016-yil O'zbekiston Badiiy akademiyasi va O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan Tasviriy va amaliy san'at festivalida qatnashib, kumush medal bilan taqdirlandi. 2020-yilda Qozog'istonning Olmaota shahrida Abay Qo'nonboyevning 175 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro tanlovda haykaltaroshlik yo'nalishi bo'yicha Gran-Prini qo'lga kiritdi. 2021-yil Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi sohibi bo'lgan tengdoshimiz Yangi O'zbekiston bog'i monumenti bunyod etilishida taniqli haykaltaroshlar, professor o'qituvchilar bilan birgalikda ishtirok etdi.

“Qozog' tog'lari”, “Qoplon”, “Rahmonjon”, “Ot”, “Uxlayotgan qiz”, “Ajoyib xayolparast”, “Pahlavon”, “Amir Temur”, “Burgut”, “Sher”, “Maftuna”, “Urush xotiralari”, “Mirzo Ulug'bek” kabi haykaltaroshlik namunalari u yaratgan asarlarning eng saralaridir.

“Ijodkor biron bir asar yaratayotganda o'sha muhitga tushib, uni his etishi kerak. Biz shu doril-omon kunlarga yetib kelgunimizcha qanchadan-qancha insonlar o'z jonlarini tikganini o'ylasam, o'zimni boshqacha his etaman va menda g'urur tuyg'usi uyg'onadi. Shulardan ilhomlanib o'z asarimni yaratishga qaror qildim, ishimdan insonlar ham shunday tuyg'ularni his etishni xohladim”, – deydi u o'zining “Urush xotiralari” asari haqida.

Yosh ijodkorimizning asarlarini tomosha qiling, his eting va zavq oling!



Loyiha muallifi **Shahribonu RAHMATOVA**.

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonaning manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahoisi kelishilgan narxda. Buyurtma O-755. Adadi – 10598. Bosilishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

